

ARAB TILIDAGI NEOLOGIZMLARNING O'ZBEK TILIGA TARJIMASI

Omonullayeva Ruqiyaxon Akbarxon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti 3-kurs talabasi

ruqiyaomonullaeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22725261>

Qabul qilindi: 4-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 11-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 12-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Ushbu maqolada zamonaviy arab tilida yuzaga kelayotgan neologizmlarning o'zbek tiliga tarjima qilinish xususiyatlari tadqiq etiladi. Globallashuv, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasida arab tilining lug'at tarkibida yangi leksik birliklar faol paydo bo'lmoqda. Tadqiqotda zamonaviy arab tilidagi ayrim yangi terminologik birliklarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi va bunda kalkalash, transliteratsiya hamda tavsifiy tarjima kabi usullarning qo'llanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, neologizmlarni tarjima qilishda o'zbek tilidagi mavjud ekvivalentni hisobga olishning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar:

neologizm, tarjima, arab tili, o'zbek tili, transliteratsiya, semantik tarjima, ekvivalentlik

KIRISH

Har qanday til singari arab tili ham jamiyatdagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar hamda madaniy almashinuvlar ta'sirida yangi so'zlar - neologizmlar bilan boyib bormoqda. Bu jarayon axborot texnologiyalari, iqtisodiyot, tibbiyot, ijtimoiy tarmoqlar kabi sohalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Arab tilidagi neologizmlarning o'zbek tiliga adekvat tarjima qilinishi tilshunoslik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi, chunki bu ikki til turli til oilalariga mansub bo'lib, ularning grammatik va semantik tizimlari o'rtasida farqlar mavjud. Neologizmlarni boshqa tilga tarjima qilish esa oddiy lug'aviy tarjimadan murakkabroq jarayondir. Chunki yangi birlik uchun tarjima tilida tayyor ekvivalent mavjud bo'lmasligi, bir necha tarjima varianti parallel qo'llanishi yoki birlikning ma'nosi kontekstga qarab aniqlanishi mumkin. Shu sababli neologizmlarni tarjima qilish masalasi tarjimonning lingvistik va terminologik kompetensiyasini talab qiladi.

ASOSIY QISM

Neologizmlar - yunoncha, neos- "yangi", logos-"so'z" so'zlarining jamlanmasi bo'lib, jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so'zlar. Neologizmlar avvaliga noodatiy so'zdek bo'ladi, lekin ko'p qo'llanilishi hisobiga "yangilik" xususiyatini yo'qotadi va faol so'zlar qatoriga o'tadi.[1] Arab tilida neologizmlar asosan quyidagi yo'llar bilan yuzaga keladi:

1. Qo'shimchalar va qoliplar orqali (Ishtiqoq): An'anaviy arabiy ildizlarga yangi ma'no yuklash (masalan, "حاسوب" kompyuter, "هاتف" - telefon, "سيارة" - mashina).
2. Transliteratsiya yoki o'zlashtirish (Ta'rib): O'zlashtirilgan so'zlar ya'ni (Arablashtirish): Arab tiliga kirib kelgan so'zlar, ko'pincha arab tilining fonetik va grammatik xususiyatlariga moslashtiriladi. Ingliz va boshqa tillardan olingan so'zlar arab tilida ishlatilishdan oldin talaffuz va yozuv jihatidan o'gartirishlarga uchraydi.[2] (masalan, texnologiya – تكنولوجيا, الإنترنت internet, – إنستغرام instagram).

3. Metaforik kengayish: (masalan, شَبَكَة - Klassik ma'nosi "to'r", zamonaviy neologizm ma'nosi: Tarmoq, مَوْقِع - Klassik ma'nosi "joy/o'rin", zamonaviy neologizm ma'nosi: Veb-sayt)

4. Naht (Qisqartma/Kompozitsiya). Bir nechta so'zning birlashuvidan hosil bo'lgan iboralar (masalan, كهرومغناطيسي - Elektromagnetik).

Arab tilidagi neologizmlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda bir nechta asosiy usullardan foydalanish mumkin.

1. Kalkalash usuli. Kalkalashda manba tilidagi birlikning tarkibiy qismlari tarjima qilinib, o'zbek tilida yangi yoki mavjud so'z birikmasi hosil qilinadi. Masalan:

الذكاء الاصطناعي - sun'iy intellekt

Bu yerda arabcha birlikning tarkibiy ma'nosi o'zbek tilida mos birliklar orqali ifodalangan.

Yana:

التجارة الإلكترونية - elektron tijorat

العملة الرقمية - raqamli valyuta

Kalkalashning afzalligi shundaki, u yangi tushunchani o'zbek tilida tushunarli shaklda ifodalash imkonini beradi. Biroq har qanday arabcha terminni so'zma-so'z kalkalash tog'ri emas.

2. Transliteratsiya. Ba'zi neologizmlar xalqaro termin sifatida bir nechta tillarda qo'llanadi. Bunday holatlarda ularni transliteratsiya qilish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

Masalan, arab tilida:

روبوت - robot

بلوغر - blogger

بودكاست - podkast

kabi birliklar boshqa tillar orqali o'zbek tilida ham qo'llanadi.

Bunday holatda tarjimon birlikning xalqaro xarakterini va o'zbek tilida allaqachon shakllangan variantini hisobga olishi kerak. Yangi termin uchun o'zbek tilida ommalashgan ekvivalent mavjud bo'lsa, asossiz ravishda yangi variant yaratish terminologik chalkashlikka olib kelishi mumkin.

3. Tavsifiy tarjima. Ayrim yangi arabcha birliklarning o'zbek tilida qisqa va tayyor ekvivalenti mavjud bo'lmasligi mumkin. Bunday vaziyatda tushunchaning mazmunini izohlovchi tavsifiy tarjimadan foydalaniladi.

Masalan, zamonaviy media tilida مؤثر so'zi ma'lum kontekstlarda ijtimoiy tarmoqlarda auditoriyaga ta'sir ko'rsatuvchi shaxs - "influencer" ma'nosida qo'llanadi. Uni kontekstga qarab "ijtimoiy tarmoq ta'sirchisi", "auditoriyaga ta'sir ko'rsatuvchi shaxs" yoki amaliy nutqda "influencer" tarzida berish mumkin.

Bu misol tarjimada kontekstning ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi. Lug'atdagi bitta muqobilni avtomatik tanlash har doim ham adekvat tarjimani ta'minlamaydi.

4. Mavjud ekvivalentdan foydalanish

Agar yangi arabcha termin uchun o'zbek tilida allaqachon qabul qilingan ekvivalent mavjud bo'lsa, tarjimon aynan shu variantdan foydalanishi lozim.

Masalan:

الأمن السيبراني - kiberxavfsizlik

الواقع الافتراضي - virtual reallik

التعلم الآلي - mashinaviy o'rganish

Tadqiqot davomida shu narsa aniqlanadiki, arab tilidagi ko'plab neologizmlar aslida ingliz tilidan o'zlashtirilgan bo'lib, ular arab tili grammatik qolipiga moslashtirilgan holda "arablashtiriladi". Bağmancı va Önel ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda texnologik taraqqiyot sur'atining ortishi natijasida ingliz tilidan arab tiliga so'zlarning jadal kirib kelishi kuzatilmoqda." [3] Mazkur neologizmlarning o'zbek tiliga tarjimasida esa tarjimon nafaqat yangi tushunchaning mazmunini, balki uning arab tilida qanday shakllanganini ham hisobga olishi lozim. Bunday hollarda o'zbek tiliga tarjima qilishda tarjimon ikki bosqichli muammoga duch keladi: birinchidan, terminning asl (ingliz) manbasini aniqlash, ikkinchidan, uning arab tilidagi shaklini emas, balki ma'nosini o'zbek tiliga moslashtirish.

Z. Tojiyeva va A. Yusupov fikriga ko'ra, "Neologizmlar nafaqat tilning lug'at boyligini oshiradi, balki jamiyatning madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini ham aks ettiradi. Yangi so'zlarning qabul

qilinishi yoki rad etilishi ko'pincha jamiyatning yangiliklarga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Arab dunyosida tilning sofligini saqlashga intilish kuchli bo'lgani uchun, ba'zan chet eldan kirib kelgan atamalar o'rniga arabcha muqobillarni yaratishga katta e'tibor qaratiladi. Bu jarayon til orqali milliy o'zlikni anglash va saqlab qolish harakatining bir qismidir". [4] Shu nuqtayi nazardan, arab tilida shakllanayotgan neologizmlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda ularning faqat lug'aviy ma'nosini emas, balki shakllanish xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. Ayniqsa, arab tilida chet tillar ta'sirida yuzaga kelgan yangi birliklarni o'zbek tiliga berishda o'zlashtirish, kalkalash yoki mazmuniy muqobil yaratish kabi usullardan foydalanish mumkin. Tarjimon uchun asosiy vazifa yangi birlikning mazmunini saqlagan holda uni o'zbek tilining leksik va uslubiy me'yorlariga mos tarzda ifodalashdan iborat.

XULOSA

Arab tilidagi neologizmlarning o'zbek tiliga tarjimasi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u nafaqat lingvistik, balki madaniy-kognitiv omillarni ham hisobga olishni talab qiladi. Samarali tarjima uchun tarjimon arab tili morfologiyasini, neologizmning kelib chiqish manbasini (o'zlashma yoki ichki yasalma ekanligini) hamda o'zbek tilining leksik-semantik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur. Tahlil shuni ko'rsatadiki, arab neologizmlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda kalkalash, o'zlashtirish, transliteratsiya, tavsifiy tarjima va mavjud ekvivalentlardan foydalanish samarali usullar hisoblanadi. Biroq ushbu usullardan birini tanlashda birlikning shakli emas, avvalo ma'nosi, konteksti, qo'llanish sohasi va o'zbek tilidagi terminologik me'yor hisobga olinishi kerak.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Yo'lchiyeva, M. M., Abdixamitova, S. U., & Omonova, M. Sh. (2022). Ingliz tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan bir necha neologizmlar tahlili. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies*, 2(1), 438–443. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-438-443>
2. A'zamxonova, O. X. (2024). Zamonaviy so'zlarning arab tiliga kirib kelish tarzi. *Modern Science and Research*, 3(12), 670–671. <https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.science-research.58326>
3. Bağmancı, E., & Önel, A. (2024). Arap Dilinde Neolojizm: el-Cezire Haber Sitesi Örneği. *Şarkiyat Mecmuası*, 44, 1-20. <https://doi.org/10.26650/jos.1424856>
4. Tojiyeva, Z. Z., & Yusupov, A. A. (2026). Zamonaviy arab adabiy tilida (MSA) neologizmlarning shakllanish mexanizmlari. *Ilm fan xabarnomasi*, 14(1). <https://wosjournals.uz/index.php/ilm/article/view/1831>